Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholashda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish	776
Sarvinoz Alisherovna Radjabova	
Neft-gaz sanoatida amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarida mahalliy kontent ulushini oshirish masalalari.....	779
Umurzakov Jamoliddin Sherbekovich	
Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari	784
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon o'g'li	
Qishloq xo'jaligi korxonalari monitoringida raqamli texnologiyalardan foydalanishda xorij tajribasi.....	788
Yusupov Nizomiddin Ro'zimurod o'g'li	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI MONITORINGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBASI

Yusupov Nizomiddin Ro'zimurod o'g'li

Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti
samduinformatika@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalari monitoringida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritib berilgan. Xususan, ilg'or davlatlarda qishloq xo'jaligida "aqlli dehqonchilik" konsepsiyasi, IoT qurilmalari, GPS texnologiyasi, sun'iy intellekt (AI) yechimlari va neyrotarmoq asosidagi modellar orqali samaradorlikka erishilayotgani ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotlar natijasida raqamlashtirishni joriy etish mexanizmlari, ma'lumotlarni yig'ish va ularni real vaqt rejimida davlat organlariga uzatish tizimi, shuningdek ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiyaning ustuvor jihatlari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish qishloq xo'jaligi korxonalarida hosildorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini berishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, aqlli dehqonchilik, sun'iy intellekt (AI), IoT texnologiyalari, GPS texnologiyasi, neyrotarmoq texnologiyasi, avtomatlashtirilgan tizim, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical aspects of using digital technologies in monitoring agricultural enterprises, as well as the experience of foreign countries. In particular, it is shown that in several developed states, efficiency in agriculture is being achieved through the implementation of "smart farming" concepts, IoT devices, GPS technologies, artificial intelligence (AI) solutions, and neural network-based models. The study examines mechanisms for introducing digitalization, systems for collecting and transmitting data to government authorities in real time, as well as key directions of automation and digital transformation in production processes. It is emphasized that the application of digital technologies in agricultural enterprises contributes to increasing productivity, optimizing resource use, reducing costs, and accelerating managerial decision-making.

Key words: Digital technologies, smart farming, artificial intelligence (AI), IoT technologies, GPS technology, neural network technology, automated system, digital transformation.

Аннотация: В данной статье освещены теоретические и практические аспекты использования цифровых технологий в мониторинге сельскохозяйственных предприятий, а также опыт зарубежных стран. В частности, показано, что в ряде развитых государств для повышения эффективности сельского хозяйства применяются концепция «умное земледелие», устройства Интернета вещей (IoT), GPS-технологии, решения на основе искусственного интеллекта (AI) и нейросетевые модели. В ходе исследования рассмотрены механизмы внедрения цифровизации, системы сбора данных и их передачи государственным органам в режиме реального времени, а также основные направления автоматизации и цифровой трансформации производственных процессов. Отмечается, что внедрение цифровых технологий способствует повышению урожайности, рациональному использованию ресурсов, снижению издержек и ускорению принятия управленческих решений в сельскохозяйственных предприятиях.

Ключевые слова: Цифровые технологии, умное земледелие, искусственный интеллект (AI), технологии IoT, GPS-технологии, нейросетевые технологии, автоматизированная система, цифровая трансформация.



KIRISH

Respublikamiz qishloq xo'jaligida barqaror o'sish suratlari, ishlab chiqaruvchilar daromadlarini oshishini va bu jarayonlardan davlat idoralari habardorligini shaffoflashtirish hamda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni nafaqat ichki balki dunyo bozorlarida ham raqobatbardoshligini ta'minlashga katta hissa qo'shadigan axborot va raqamli texnologiyalar tizimini yaxshilash maqsadida jahon tajribasining yangiliklarini o'rganib mos optimal yechimlarni qishloq xo'jaligi korxonalarining monitoringini yuritish uchun tadbir etishni ushbu maqolada ko'rib chiqqanmiz.

Raqamli texnologiyalar va axborot xajmlari keskin oshib borayotgan bir vaqtda to'g'ri va aniq axborotga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa ushbu axborotdan olgan xulosamiz malum bir korxona tashkilot uchun qaror qabul qilish asos bo'ladigan malumot bo'lsa bu nechog'lik ahamiyatli ekanini ko'rishimiz mumkin. Jahon tajribasidan ma'lumki, to'g'ri axborotning yetishmasligidan qishloq xo'jaligi korxonalarining aksariyat qismi tanazzulga uchraydi yoki davlatga ham istemolchilarga ham naf keltirmaydigan korxonaga aylanadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab barcha rivojlangan mamalakatlarida davlat va xususiy moliyalashtirish asosida faoliyat yurituvchi axborot maslahat firmalari jadal tashkil etila boshlandi. Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiruvchi axborot va nazorat xizmatini tashkil etishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining davlat darajasidagi qo'llab quvvatlashining bir ko'rinishidir. dunyoning yetakchi mamalakatlaridagi monitoring xizmatlarining muvaffaqiyatli faoliyati qishloq xo'jaligi taraqqiyoti darajasining yuksalishiga sabab bo'ldi va bu jamlangan tajribani o'rganish va to'g'ri qo'llash respublikamizning qishloq xo'jaligi faoliyatini yuksalishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz olimlaridan A.N. Aripov, S.S. Gulyamov, B.A. Begalov M.Q. Abdullayev, D.Sh. Toshpo'latov, T.R. Nurmatov, D.S. Sayfiddinov, X.X. Tursunov, A.A. Ashurov, A.B. Rasulov, Sh.K. Ismailov, S.B. Raximov kabilar izlanishlarida mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari, axborot – kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari, korxona boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi korxonalarining axborot taminoti tizimining funksional tarkibini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, mamlakat sharoitida hosildorlikni oshirish uchun axborot tizimlarini joriy qilish, sug'oriladigan yerlarni samarali boshqarish uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash, sug'orish tizimlarini avtomatlashtirish va tuproq unumdorligini nazorat qilish texnologiyalarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni optimallashtirish va monitoring tizimlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida IoT va sun'iy intellektdan foydalanish, raqamli texnologiyalar yordamida qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini tashkil qilish kabi masalalar va ularga oid muammolar chuqur o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada solishtirma taxlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, qishloq xo'jaligi korxonalari monitoringi va nazorat tizimini avtomatlashtirishni baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Endilikda qishloq xo'jaligi korxonalarining monitoringini yurtish borasida qishloq xo'jaligi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan tanishamiz.

Rivojlangan turli mamlakatlar axborot va monitoring xizmatlarining tashkiliy va faoliyat yuritish tizimlarining bir biridan farqlanishi quyidagilarda aks etgan:

Tarkibiy tuzulishi (ayrim davlatlarda, Kanada va Germaniyada, davlat xizmatlari tarkibida tijorat guruhlar mavjuda va ular mustaqil faoliyat yuritadi);

Davlat xissasining farqlanishi (20% dan 100 % gacha);

Xizmat to'lovining turiligi (davlat byudjeti yoki korxonalar xisobidan);

Yangilangan axborotning shakllanishi (ko'p mamlakatlarda ilmiy markazlar va oliy o'quv yurtlari uning asosiy manbasidir);

Axborot tarqatish usullari (davlat va xususiy firmalarda eng ommalashgani bu bevosita ishlab chiqaruvchi bilan tanishish va uning xo'jaligini o'rganish);

Axborot tarqatish yo'llari (deyarli barcha davlatlarda bosqichma bosqich global telekommunikatsion tizimga kelmoqda).



Barcha uchun umumiy shundaki ular tashkil etilganidan boshlab shakillangunga qadar davlat ko'magida bo'lgan va xizmatlarni bepul bajarishgan. Zamonaviy qishloq xo'jaligi nafaqat ishlab chiqarish, balki tizimli nazorat va monitoring jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini nazorat qilish samaradorligi sezilarli darajada oshirilmoqda. Ushbu paragrafda AQSh, Niderlandiya, Isroil, Avstraliya va Xitoy kabi davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganiladi.

AQShda qishloq xo'jaligi sohasida raqamli nazorat tizimi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Asosiy boshqaruv tashkiloti — USDA (United States Department of Agriculture) — barcha fermer xo'jaliklari ustidan tizimli nazorat olib boradi[1]. USDA tarkibidagi NASS (National Agricultural Statistics Service) har yili fermer xo'jaliklarining faoliyatini statistik jihatdan baholaydi. Bu jarayonda quyidagi raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi:

Sun'iy yo'ldosh orqali dalalarning holatini kuzatish.

Farm Management Software dasturlari (masalan, Climate FieldView, Trimble Ag Software) orqali real vaqt rejimida fermerlar faoliyatini tahlil qilish.

IoT (Internet of Things) texnologiyasi orqali yer namligi, harorat, hosildorlik darajasi haqida avtomatik axborot yig'ish.

Bunday tizimlar yordamida fermerlar faoliyati shaffof nazorat qilinadi, ma'lumotlar markazlashgan holda yig'iladi va tahlil qilinadi. Bu esa nazorat organlariga tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Niderlandiya "Smart Farming" (aqlli dehqonchilik) yondashuvi orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini raqamli nazorat qilishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi[2]. Bu yondashuv asosida quyidagi elementlar mavjud:

Dronlar yordamida dalalarning holatini muntazam kuzatish.

AI (sun'iy intellekt) algoritmlari yordamida hosildorlik prognozini amalga oshirish.

Raqamli xaritalar asosida mahsulot yetishtirish jarayonini nazorat qilish.

Onlayn hisobot tizimi orqali korxonalar davlat monitoring tizimiga bog'langan.

Bularning barchasi qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini aniq, avtomatlashtirilgan va shaffof nazorat qilishga xizmat qiladi.

Isroilda qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish va samarali nazorat qilish asosiy ustuvor yo'nalishdir. Ayniqsa, suv resurslarining tejab-tergab ishlatilishini nazorat qilish uchun quyidagi texnologiyalar joriy etilgan[3]:

Netafim kompaniyasining raqamli irrigatsiya tizimlari.

Aqlli datchiklar va IoT qurilmalari orqali doimiy monitoring.

Mobil ilovalar orqali fermerlar faoliyatining markazlashgan nazorati.

Isroil tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat ishlab chiqarish, balki ekologik me'yorlarga rioya qilinishini ham samarali nazorat qilish mumkin.

Avstraliya hukumati tomonidan qishloq xo'jaligi sohasida raqamli monitoring va nazorat tizimlarini yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratilgan[4]. Bu yo'nalishda quyidagi raqamli platformalar faoliyat yuritadi:

National Map — geoxaritalash asosida korxonalar faoliyatini tahlil qiladi.

AgData — fermer xo'jaliklarining real vaqt ma'lumotlarini jamlab, tahliliy hisobotlar yaratadi.

Nazorat jarayonlarida GIS (Geographic Information Systems) texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari va raqamli analiz vositalari keng qo'llaniladi. Bu orqali yer resurslari, suvdan foydalanish, mahsulot aylanishi kabi ko'rsatkichlar ustidan kompleks nazorat o'rnatiladi.

Xitoy "Digital Agriculture" kontsepsiyasini amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligi ustidan markazlashtirilgan raqamli nazorat tizimini joriy etgan[5].

Quyidagi texnologiyalar asosiy o'rinni egallaydi:

Dronlar yordamida yer maydonlari va ekin holatini tekshirish.

AI texnologiyalari orqali hosildorlik va kasalliklar prognozini nazorat qilish.

IoT texnologiyasi asosida o'simlik o'sishi, namlik, havo harorati kabi parametrlarni avtomatik nazorat qilish.

"Raqamli ferma"lar orqali har bir fermer xo'jaligining ish faoliyati markazlashtirilgan tarzda boshqariladi.

1 – jadvalda xorijiy davlatlar tajribalarini asosiy mezonlar bo'yicha taqqoslaydi:

1-jadval. Xorijiy davlatlar tajribalarini asosiy mezonlar bo'yicha taqqoslash[6].

Mamlakat	Monitoring va nazorat vositalari	Asosiy texnologiyalar	Afzalliklari
AQSh	USDA orqali markazlashgan nazorat	IoT, sun'iy yo'ldosh, Farm Software	Shaffoflik, real vaqt monitoringi
Niderlandiya	Smart farming monitoring	Dron, AI, onlayn hisobot tizimi	Avtomatlashtirish, samaradorlik



Isroil	Resurslar nazorati	IoT, mobil ilova, aqlli datchiklar	Suv tejamkorligi, aniqlik
Avstraliya	GIS asosida geo-nazorat	Digital maps, AgData	Raqamli nazorat, ekologik monitoring
Xitoy	Markazlashgan raqamli nazorat	Dron, AI, raqamli fermalar	To'liq monitoring va prognozlash

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali nazoratini ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Yurtimizda ham ushbu ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy monitoring tizimlariga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, real vaqt rejimida ishlovchi platformalar, sun'iy intellekt, IoT, sun'iy yo'ldosh va dron texnologiyalarini joriy etish orqali nazorat samaradorligini oshirish mumkin.

Kelgusida O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni kompleks tahlil qilgan holda, milliy raqamli nazorat tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Markaziy Osiyo mintaqasi agrar sektorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u yer-suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishlari va aholi sonining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalarini nazorat qilish va boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston tajribasi, bu borada turlicha yondashuvlarni namoyon etadi.

Qozog'iston Markaziy Osiyoda raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga joriy etishda yetakchi hisoblanadi. Mamlakat 2021–2025 yillarga mo'ljallangan "Smart Farming" strategiyasi doirasida bir qancha ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqdi va amaliyotga joriy qildi[7].

"AgroSpace" axborot tizimi sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini olib boradi. Bu tizim quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Ekin maydonlarini aniqlash;
- Sug'oriladigan yerlardan foydalanishni tahlil qilish;
- Hosildorlikni prognoz qilish.

GPS texnologiyasi orqali texnikaning harakati nazorat qilinadi, bu esa yoqilg'i sarfi, ish sifati va vaqtni tejashga xizmat qiladi. Dronlar esa maydonlarni real vaqt rejimida ko'zdan kechirib, zararkunandalar yoki kasalliklar tarqalishini erta aniqlaydi. Fermer xo'jaliklariga subsidiya ajratishda elektron platforma orqali ariza topshirish, ko'rib chiqish va nazorat mexanizmlari avtomatlashtirilgan. Bu tizim korrupsiyani kamaytirishga yordam bermogda.

Qirg'iziston raqamli transformatsiya yo'lida bo'lsa-da, ushbu mamlakatda bir nechta muhim tashabbuslar amalga oshirilgan. Yevropa Ittifoqi ko'magida ishlab chiqilgan AgroMap loyiha orqali[8]:

- Yer maydonlari raqamli xaritaga tushirilgan;
- Har bir yer egasining raqamli reyestri yaratilgan;

Yer ulushlari bo'yicha raqamli tahlillar olib boriladi. M-Farm ilova orqali fermerlar quyidagi ma'lumotlarni olishlari mumkin:

- Bozor narxlari;
- Iqlim o'zgarishlari bo'yicha prognozlar;
- Agronomik tavsiyalar.

Davlat tomonidan yaratilgan "eLand" platformasi orqali yer maydonlarining egalari va ularning foydalanish holati doimiy nazorat ostida.

Qozog'iston eng ilg'or tajribaga ega bo'lsa, Qirg'iziston va Tojikiston xalqaro ko'makdan unumli foydalangan. Turkmaniston yopiq nazorat tizimini yuritmoqda. O'zbekiston esa kompleks yondashuv asosida raqamli platformalarni amaliyotga joriy etmoqda. Bu tajribalarni o'zaro solishtirish va o'rganish asosida O'zbekiston agrar sektorida monitoring va nazorat tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligi sohasining nazorat va boshqaruv tizimi yuqori darajada markazlashtirilgan bo'lib, asosiy funksiyalar Rossiya Federatsiyasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (Министерство сельского хозяйства Российской Федерации – Минсельхоз России) zimmasiga yuklatilgan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ushbu sohada nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda[9].

Rossiyada ishlab chiqilgan va faoliyat ko'rsatayotgan asosiy raqamli nazorat tizimlari quyidagilardan iborat[10]:

"Цифровое земледелие" (Raqamli dehqonchilik) dasturi — yer maydonlari, agrotexnik tadbirlar, hosildorlik va texnika harakati haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi.

GIS-Agro tizimi — geoinformatsion texnologiyalar orqali yer resurslari va ekin turlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.



FGIS “Zerno” — don mahsulotlari bozorini monitoring qilish va mahsulotlar harakati ustidan nazoratni ta'minlash uchun mo'ljallangan federal axborot tizimi.

Меркурий — veterinariya nazorati doirasida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda foydalaniladigan tizim.

So'nggi yillarda Rossiya qishloq xo'jaligida nazorat funksiyalarini takomillashtirishda quyidagi zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilmoqda:

Internet of Things (IoT) va sensor texnologiyalar — dala sharoitida turli o'lchovlarni avtomatik tarzda qayd etadi.

Dron va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari — masofaviy monitoring va kartografik tahlilni amalga oshiradi.

Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) — korxonalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

ERP tizimlar — yirik agroholdinglar faoliyatini kompleks boshqarishda qo'llaniladi.

Rossiyada raqamli texnologiyalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalarining nazorat jarayonlarida quyidagi ijobiy o'zgarishlarga erishilgan:

Nazorat jarayonlarining shaffofligi oshgan;

Hosildorlik prognozlari aniq va ishonchli bo'lmoqda;

Subsiyalar ajratilishida samara oshgan;

Fermer xo'jaliklarining faoliyati ustidan doimiy monitoring ta'minlangan;

Firibgarlik holatlari kamaygan.

Ushbu tajriba Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, qishloq xo'jaligida nazorat tizimini modernizatsiya qilishda muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur sohaga yetarlicha e'tibor qaratish, ilmiy nuqtai-nazardan keng tadqiq qilish, aqlli qishloq xo'jaligini joriy qilish hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytiradi. Ushbu sohaning dunyoda jadal rivojlanishi O'zbekistonning agrar sektori uchun jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda, chunki qulay tabiiy sharoitga qaramay, biz o'z mahsulotlarimizni ishlab chiqarish va sotishda hali ham yetarlicha raqobatdosh emasmiz. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari haligacha raqamli texnologiyalarning keng imkoniyatlari ular uchun qancha sarmoya olib kelishi, xarajatlarni qisqartirishi va hosildorlikni oshirishini to'laligicha anglab yetishgani yo'q.

Taklif va tavsiyalar

Fermer va mutaxassislar uchun maxsus raqamli o'quv kurslarini joriy etish;

Davlat-xususiy sheriklik asosida texnik infratuzilmani rivojlantirish;

Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash;

Internet va raqamli platformalarni qishloq joylarda kengaytirish;

Subsiya va kreditlar orqali raqamli texnologiyalarni arzonlashtirish;

Raqamli platformalarda mahalliy tillarda interfeyslar ishlab chiqish;

Monitoring tizimlarida ishtirok etayotgan subyektlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.

Raqamli texnologiyalar yordamida qishloq xo'jaligida monitoring tizimlarini takomillashtirish mamlakatimiz agrar sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar fermerlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar, davlat organlari uchun esa nazorat va tahlil qilish qulayliklarini yaratadi. Albatta, mavjud muammolarni hal qilish uchun tizimli yondashuv, infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish zarur. Raqamli transformatsiya orqali qishloq xo'jaligidagi samaradorlik, resurslardan foydalanish madaniyati va ekologik barqarorlik sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO. (2021). Digital agriculture: Report on global trends. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. Van der Wal, T., Jansen, J., & Klerkx, L. (2020). Digitalization and the future of agriculture in the Netherlands. *Technology in Society*, 63, 101388.
3. Ghanem, D. (2019). Precision irrigation technologies and water efficiency in Israel. *Journal of Agricultural Economics*, 70(3), 643–659.
4. Australian Department of Agriculture. (2021). Digital technology adoption in agriculture: National strategy report.
5. Li, Y., & Chen, X. (2020). The development of digital agriculture in China: Opportunities and challenges. *Journal of Rural Studies*, 78, 320–329.
6. Muallif ishlanmasi
7. Qozog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. “Smart Farming 2021–2025” strategiyasi. gov.kz
8. AgroMap – GIS Technologies in Kyrgyz Agriculture. EU Report. 2022.
9. Министерство сельского хозяйства Российской Федерации – <https://mcx.gov.ru>
10. 10 Цифровизация АПК: практика и перспективы”, Журнал «Агроинвестор», 2023



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
